

MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN IQTISODIYOT: negizlar va farovonlik uyg'unligining empirik tahlili

Mundarija

Minnatdorlik.....	3
Kirish.....	4
Ota-onaga ehtirom	5
Lafz	7
Pokizalik	9
Jasorat (Jur'atlilik)	11
O'zbek tili.....	13
Harakatda baraka.....	16
Erkin va mustaqil fikrlash	18
Yelkadoshlik.....	20
Bag'rikenglik	22
Silai rahm	24
Tabiat bilan uyg'unlik.	26
Rozi-rizolik	28
Ilovalar	29

Minnatdorlik

Ushbu tadqiqot Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) direktori Umid Obidxo'jayev boshchiligidagi ilmiy xodimlar – Muhabbat Ahmedova, Odiljon Nazarov, Ilhom Ikromov, Jasur Jalolov, Nailya Ibragimova, Diydor Berdiqilichev, Anton Kostyuchenko, Abdusattor Abdumuminov tomonidan tayyorlandi.

Shuningdek, mazkur tadqiqotni tayyorlashda Zamon Haldarov, Sobir Turdiyev, Nodirbek Rasulov hamda Isroil Saidov yaqindan yordam berdi.

Shu o'rinda, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti jamoasi Firuza Muxamedjanovaning beminnat mehnatlari va qo'shgan hissalarini alohida e'tirof etgan holda Ibrohim G'ofurov, Erkin A'zam, Qiyom Nazarov, Olimjon Davlatov, Sarvar Otamuratov, Nodir Muxtorov, Beruniy Olimov, Iroda Dadajonova, Jannatxon Ismoilova, Saodat Davlatova, Feruza Jalilova, Mohira Xoliqova, Shuhrat Sattorov, Dilshod Bo'riyev, Nargiza Umarova, Alisher Tadjiyev, shuningdek, o'z taklif hamda mulohazalarini bildirgan boshqa barcha yurtdoshlarimizga minnatdorlik bildiradi.

Kirish

Dunyoda har bir millat va xalqning o'zligini anglashi, sha'nini ulug'lashida qadriyatlarning o'rni beqiyos. U o'tmishni bugun bilan bog'lab, kelajakka dadil qadam qo'yish, xalqni jipslashtirish va yagona kuch sifatida ertangi kunga teran nigoh tashlashning muhim omilidir. Teran va aniq fikrlash esa rejalashtirish ufqini kengaytiradi, ertangi kun o'zi bilan nima olib kelishiga oydinlik kiritadi. Demak jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot va farovonlik bevosita qadriyatlar bilan bog'liq.

Xalqimizning minglab yillik boy tarixi, ma'naviy merosi, turmush tarzi, hayotiy qarashlari va e'tiqodidan kelib chiqqan holda shakllangan milliy qadriyatları bor, ammo ular shu paytgacha eng muhim qadriyatlarimiz ro'yxati sifatida shakllantirilmagan. Holbuki, bugun yoshlarning zamonaviy va yangi O'zbekiston jamiyatiga tayyor va mos bo'lib kamol topishida bunga ehtiyoj bor. Shundan kelib chiqqan holda MHTI mutaxassislari mazkur qadriyatlar ro'yxatini shakllantirgan holda ularning mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlashdagi roli va ahamiyatini tahlil qildi.

Bunda ota-onaga ehtirom, lafz, pokizalik, jasorat, o'zbek tili, harakatda baraka, erkin va mustaqil fikrlash, yelkadoshlik, bag'rikenglik, silai-rahm, tabiat bilan uyg'unlik va rozirizolik milliy qadriyatlarimiz sifatida keltirilgan.

Milliy qadriyatlar ro'yxatini shakllantirish jarayonida Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutida o'tkazilgan uchrashuvlarga yurtimizdagи ko'zga ko'ringan adabiyotshunoslar, faylasuflar, tarixchilar, jurnalistlar, pedagoglar, iqtisodchilar va umuman, keng jamoatchilik vakillari taklif etildi va ular tomonidan bildirilgan fikrlar, takliflar inobatga olindi. Ularning aksariyati uchrashuvlarda bevosita qatnashgan bo'lsa, bir qismi o'z mulohazalarini yozma ravishda taqdim etdi.

Milliy qadriyatlar nafaqat bevosita, balki bilvosita omillar orqali iqtisodiy o'sishga va farovonlikka erishishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotda yuqorida keltirilgan milliy qadriyatlarimizning aholi turmush farovonligi, iqtisodiy taraqqiyot va jamiyat ravnaqiga ta'siri ilmiy asoslangan holda ekonometrik tahlillar yordamida aniqlandi.

Bunyodkor va insonparvar qadriyatlar suv va havodek zarur bo'ladi. Buni qancha tezroq anglab yetsak shuncha yaxshi.

Qadriyatlar har bir mamlakat uchun bir qator muhim vazifalarni hal qiladi: majoziy ma'nodagi DNKniga saqlab qolish, dunyo ahliga biz kim ekanligimizni va kim bo'lib qo'lishimizni bildirish, uyg'unlikni, o'tmishdan kelajakka foydali dars, omonat, tirkak va mezonlarni yetkazadi.

Keyingi bosqich bu qadriyatlarni yoshlar bilan baham ko'rish va ularga shu qadriyatlar haqida o'ylab kurishni tavsiya etish. Bu qadriyatlar yuk emas, bo'ron paytidagi boshpana, oyoqdagi tosh emas, kuch beradigan tirkak bo'lishini tushuntirish.

Agar yoshlar bu haqida fikr yuritishni lozim topsa va bu qadriyatlar zamirida hikmat borligiga ishonsa, demak bu qadriyatlar yashab qoladi.

Ota-onaga ehtirom

Ma'lumki, farzandning komil inson sifatida voyaga yetishida ota-onaning roli nihoyatda katta. Farzand tarbiyasi ota-onadan juda katta mas'uliyatni talab qiladi. Farzand ota-onsa uchun ulug' bir ne'mat bo'lgani kabi, o'z navbatida farzandlar ham ota-onasini hurmat qilishi, e'zozlashi xalqimizga xos milliy qadriyatlardandir. Ota-onas bilan muloyim gaplashish, ehtirom ko'rsatish, maslahatlashish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish va xabar olish farzandlarning ota-onas rizoligini olishidagi muhim qadriyatlarimizdan biridir. Farzandlarning ota-onaga g'amxo'rlik qilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham belgilab qo'yilgan.

Masalaning yana bir muhim jihatni bu farzandlarning voyaga yetganidan keyin ham ota-onasi bilan birga yashashi va ularga g'amxo'rlik qilishidir. Bu esa chuqur hurmat va mehr-oqibat belgisi hisoblanadi. Aynan shu jihat avlodlar o'tasida bir-biriga nisbatan ehtirom va qo'llab-quvvatlash istagini yuzaga chiqaradi. Bu jihat ilmiy tadqiqotlarda generativlik xususiyati deyiladi.

Misol uchun, psixologik va psiko-ijtimoiy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan E.Erik "generativlik" konsepsiyasini taklif qilgan. Unga ko'ra, kattalar qadriyatlarni qaror toptirish va keyingi avlodlarga yetkazish hamda ularning farovon hayot kechirishini ta'minlashga intiladi. Ota-onalar bilan yashash bu generativlikning ifodasidir¹. Bu yerda voyaga yetgan farzandlar ota-onalariga hurmat va g'amxo'rlik ko'rsatadi, yordam beradi va qo'llab-quvvatlaydi.

Ota-onas bilan yashash oila a'zolariga g'amxo'rlik qilishning uzoq muddatli yechimi bo'lib, oilalarning farovonlik darajasiga ham ta'sir qiladi. Shuningdek, ota-onas bilan birga yashash farzandlarda mas'uliyat hissini oshirib, ularda kasb-hunar o'rganish, mehnat qilish va ko'proq daromad topishga intilish hissini kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib, milliy qadriyatlarmizdan biri bo'lgan ota-onaga ehtirom ko'rsatishning oilaning umumiyligi daromadiga va farovonligiga ta'sirini tahlil qilamiz.

Metodologiya. Yuqoridagi nazariyalarga asoslanib, ota-onalar bilan yashash daromadni oshirishda yordam beradi, degan gipoteza shakllantirildi. Ushbu gipotezani isbotlash uchun ota-onalar o'tasida ($N = 3751$) so'rov o'tkazildi va hisob-kitoblar amalga oshirildi. Bunda Moslashtirish (Matching) modelidan foydalanildi². Model tenglamasi quyidagicha:

$$Y_{ij} = \alpha_i + \gamma_i (ota - ona\ bilan\ yashash/yashamaslik) + \sum_j \mu_{ij} Z_j + \varepsilon_{ij}$$

¹ http://psychoanalysis.by/wp-content/uploads/2018/04/detstvo_i_obshchestvo.output.pdf

² Ekonometrik Moslashtirish modeli ob'ektlar orasidagi juftlik yoki moslashish jarayonini tavsiflash va tahlil qilish uchun ishlataladi. Ushbu model bir xil ob'ektlar (masalan, xodimlar va ish o'rinnari, xaridorlar va sotuvchilar) bir-biri bilan taqqoslanishi kerak bo'lgan vaziyatlarni o'rganish uchun mo'ljalangan.

Moslashtirish modelining asosiy g'oyasi bog'liq o'zgaruvchini (masalan, ish haqi, sotish hajmi) va uning ob'ektlari xususiyatlarini (masalan, xodimlarning malakasi, mahsulot sifati) va ularning o'zaro bog'liqligini tasodif yoki moslik ekanini aniqlash.

Ushbu modelda *ota-onasi bilan yashashning* uy xo'jaligi daromadiga ta'siri aniqlandi. Shuningdek, ushbu modelning ishonchliliginin tekshirish maqsadida bir qancha testlar o'tkazildi.

Natijalar. Olingen natijalarga ko'ra, ota-onasi bilan birga yashaydigan fuqarolarning jon boshiga o'rtacha oylik daromadi alohida yashovchilarnikiga qaraganda 0,09 foiz bandga yuqori ekanligi aniqlandi (1-jadvalga qarang). Ushbu natijalar yuqoridagi gipotezani tasdiqlagan holda farzandlarning ota-onalar bilan yashashi ularning daromadiga ijobiy ta'sir qilishini isbotlaydi.

Hisob-kitob jarayonida foydalilanigan modelning ishonchliliginini baholovchi testlar natijasi 2- va 3- jadvallarda va 1-rasmida keltirilgan.

Amaliyotda qo'llash uchun:

Ishda/universitetda/maktabda: O'z sohasining chinakam tajribali mutaxassisib bo'lgan insonlarni hurmat qiling, ularning maslahatiga qulqoq tuting va bu maslahatlarga amal qiling. Soha rivojiga qo'shgan hissasi va tajribasi uchun ularga minnatdorlik bildiring.

Uyda: Doimo ota-onangizdan xabar oling, ular kun davomida nima yumushlar bilan band ekanligiga qiziqing, ro'zg'or tashvishlarini hal etishda yordam bering va ular bilan chin dildan suhbatlashing. Siz uchun jon kuydirayotgani va berayotgan maslahatlari uchun minnatdor ekaningizni ayting.

Lafz

Izoh uchun

Har bir inson hayotida lafz shubhasiz muhim ahamiyatga ega. Chunki u boshqalarning sizga bo'lgan ishonchini oshiradigan, mustahkamlaydigan fazilatdir. Til bilan berilgan va'da insonning subutli yoki subutsiz ekanini belgilaydi. Agar u lafzida tursa, demak, unga tevarak atrofdagilarning ishonchi ortib boraveradi, aksincha bo'lsa, ishonchi yo'qoladi. Shu bois ham xalqimiz lafzi halollikni qadriyat sifatida ko'radi.

Dunyo tajribasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, olamga dong'i ketgan shunday firma va kompaniyalar borki, ular bu darajadagi obro' hamda muvaffaqiyatga erishishining asosiy sabablaridan biri lafzga mas'ullikdir, deb bemalol aytish mumkin.

Ijtimoiy omillarning iqtisodiy o'sishga ta'siri bir necha o'n yillar davomida iqtisodchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelgan. Agar jamiyatda har bir fuqaro o'z so'ziga sodiq bo'lsa, bu nafaqat ular o'rtasidagi ishonchning oshishi, balki tadbirkorlik muhitining yaxshilanishiga va iqtisodiy o'sishni ta'minlanishiga olib keladi.

Norvegiya ijtimoiy tadqiqotlar instituti professori Vollebekning so'zlariga ko'ra, shaxslarning bir-biriga bo'lgan ishonch darajasi va iqtisodiy o'sish dinamikasi o'rtaida ijobiy bog'liqlik mavjud³. Xususan, ishonchli hamkorlik turli xil qo'shimcha tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi. Bu esa hamkorlar, kontragentlar va xodimlarning harakatlarini nazorat qilish uchun sarflanadigan resurslarni tejagan holda tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatli rivojlanishiga turtki bo'ladi .

Masalan, jamiyatda ishonch darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, aholi jon boshiga daromad ko'rsatkichi shunchalik yaxshi bo'lishi aniqlangan. 1998-2017 yillar uchun Juhon qadriyatlarini o'rganish va Juhon Bankining statistik ma'lumotlari asosida qilingan hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, ishonch darajasi ballarining 10 foiz bandga o'sishi aholi jon boshiga o'rtacha YalMning 21 foiz o'sishiga olib keladi⁴.

Ushbu tahlilda ishonch ta'siri va YalM o'rtaidagi bog'liqliknini aniqlash maqsadida 2000-2019 yillar oraliq'ida Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston) va Kavkaz mintaqalaridagi mamlakatlar (Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya), shuningdek, Mo'g'iliston uchun ma'lumotlardan foydalanildi.

Metodologiya. Ishonch darajasi ko'rsatkichining YalMga ta'sirini baholashda quyidagi modeldan foydalanildi.

$$\ln GDP_{it} = \beta_0 + \beta_1 * RoL_{it} + \beta_2 * Capital_{it} + \beta_3 * Trade_{it} + \beta_4 * FDI_{it} + \varepsilon_{it}$$

Ushbu tadqiqotda ishonch darajasini baholash uchun qonun ustuvorligi indeksi (*RoL*) proksi o'zgaruvchi, shuningdek, yalpi kapitalni shakllantirish

³ <https://www.forbes.ru/finansy-i-investicii/372023-ekonomika-na-vere-kak-rost-vvp-zavisit-ot-kultury-doveriya>

⁴ <https://iq.hse.ru/news/317209749.html>

(*Capital*), savdo ochiqligi (*Trade*) va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (*FDI*) kabi omillar shartli o'zgaruvchilar sifatida qo'llanildi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarga oid ma'lumotlarni yig'ishda Jahon Banki ma'lumotlaridan foydalanildi (4-jadvalga qarang). Shuningdek, 2015-yildagi YalM narxlari tahlil uchun izohlovchi o'zgaruvchi sifatida qo'llanildi (modelda YalMning logarifmidan (*lnGDP*), ya'ni o'sish sur'atidan foydalaniladi).

O'zgarmas va tasodifiy effektlar modelidan birini tanlash maqsadida Xausman testi amalga oshirildi. Xausman testi natijalariga ko'ra, 233,12 (prob > chi2 = 0.000) ko'rsatkich bilan o'zgarmas effektli model tanlanishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

Natijalar. Model natijalariga ko'ra, tahlil qilinayotgan davlatlarda qonun ustuvorligining 0,01 bandga oshishi YalMni deyarli 0,7 foizga o'sishiga olib keladi. Modelning ishonchlilik testlari natijalariga ko'ra (6-jadvalga qarang) panellar o'zaro bog'liq, geteroskedastik va vaqt kesimida o'zaro bog'liqligi aniqlandi va shu sababdan hisob-kitoblar Driskoll-Krey standart xatoliklaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi (5-jadvalning o'ng ustuni).

Amaliyotda qo'llash uchun:

Umuman: Qanday ishga qo'l urmang, halol bo'ling hamda so'zingizning ustidan chiqing. Agar va'da bersangiz, qanday noqulay vaziyat yuzaga kelsa ham uni bajaring. Agar va'dangizni bajarishga halaqt beradigan qandaydir kutilmagan holat yuzaga kelsa, bu haqida ochiq-oydin gaplashib oling.

Ishda/universitetda/maktabda: Va'dangizni o'z vaqtida bajarishga harakat qiling, plagiatdan qoching va ilmiy izlanishlaringizda rostgo'y bo'ling. Hamkasblar yoki sinfdoshlar bilan munosabatlarda rostgo'y bo'ling va fikringizni ochiq-oydin bildiring.

Pokizalik

Izoh uchun

Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan yana biri bu tozalik, pokizalikka rivoja qilishdir. Sababi pokizalik, saranjom-sarishtalik bor joyda qutbaraka bo'ladi. Bunda nafaqat insonning vujudi, balki kiyim-kechagi, unga xos boshqa narsalar, shuningdek, uni qurshab turgan muhit pokizaligi ham muhim. Asosiysi, pokizalik salomatligimizni asrashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, pokizalik estetik ahamiyatga ham ega. U qalblarga ko'tarinki kayfiyat, quvonch baxsh etib, kishini ruxlantiradi.

Jahon sog'lijni saqlash tashkilotining Makroiqtisodiyot va salomatlik bo'yicha komissiyasi (2001) sanitariya holatining (tozalik) inson salomatligiga ta'siri mavjudligini aniqlab, tozalik va pokizalik uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va farovonlikka ijobjiy ta'sir qilishini asoslab bergan.

Inson sog'-salomat bo'lmas ekan, ishlash va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan faol bo'lish imkoniyatidan foydalana olmaydi. Xususan, inson salomatligi va uning ta'lim olishida toza suv va yaxshi sanitariya sharoitining mavjudligi turli yuqumli kasallikkarning oldi olinishda yordam beradi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, toza ichimlik suvi va sanitariya sharoitining yo'qligi oshqozon-ichak kasallikkleri, diareya hamda neyro-kognitiv tanqislik, shuningdek, maktablarda davomatning pasayishiga sabab bo'ladi.

Sog'lijni saqlashdagi muammolar katta xarajatlarni talab qiladi. Misol uchun, insonlar sog'ligining yomonlashuvi ularning salomatligini tiklash uchun ketadigan xarajatlarning ortishi va oqibatda daromadlarining kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, kasallikni davolash uchun sarflanadigan vaqtни boshqa samaraliroq faoliyatga yo'naltirish va daromad keltiradigan biror mehnat turi bilan shug'ullanish mumkin⁵.

Ilmiy manbalarning ko'rsatishicha Nigeriyada sifatli ichimlik suvi va sanitariya vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'Imagan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida o'lim xavfi sezilarli darajada yuqori. Xususan, suvning yetarli emasligi va sanitariya sharoitlari tufayli postneonatal o'lim xavfi 38 foizga, bolalar o'limi xavfi 24 foizga oshgan⁶.

Metodologiya. Tozalikning aholi daromadlari orqali iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash uchun Statistika agentligi tomonidan mamlakatning barcha hududlarida 2021-yilda o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan foydalanildi.

Ichimlik suvi va sanitariya sharoitlarining yaxshi ekanligini baholash uchun Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti va YUNISEF (UNICEF) tariflaridan foydalanildi⁷.

Suv va sanitariya sharoitlarini yaxshilashning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadga ta'sirini baholashda har bir indikator uchun

⁵ <https://doi.org/10.1016/j.healthpol.2005.07.016>

⁶ <https://doi.org/10.3390/ijerph110909256>

⁷ <https://iris.who.int/handle/10665/44272>

“dummy” o‘zgaruvchilari yaratildi va ular o‘zaro ta’sir o‘zgaruvchisi (interaction term) sifatida kiritildi. Bundan tashqari, olib borilgan tahlillarning reprezentativligini oshirish uchun uy xo‘jaliklarining individual vaznlari inobatga olindi (7-jadvalga qarang).

Hisob-kitoblarda uy xo‘jaliklarining jon boshiga to‘g’ri keladigan daromad o‘zgaruvchisi logarifmik shaklga keltirildi (8-jadvalga qarang).

Regressiya tahlillari quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$\log(pcinc) = f(\text{imp}_{\text{wat}_\text{san}}, \text{hhsize}, \text{urb}, \text{heduc}_{\text{exists}}, \text{emp}_{\text{exists}})$$

Natijalar. Birinchi model ichimlik suvi sifatini yaxshilashning aholi jon boshiga to‘g’ri keladigan daromadga ta’sirini baholaydi. Natijaga ko‘ra, suv ta’minoti sifati yaxshilanganda daromad 22,1 foiz o‘sishiga olib keladi (10-jadvalga qarang). Ikkinci modelda sanitariya sharoitining yaxshilanishi aholi jon boshiga daromadni 13,2 foizga oshirishi aniqlandi. Uchinchi model sanitariya va toza ichimlik suvi o‘zgaruvchilarining o‘zaro ta’sir o‘zgaruvchisi (interaction term) aholi jon boshiga daromadni 19,2 foizga oshirishini ko’rsatdi.

To‘rtinchı modeldan yettinchi modelgacha nazorat o‘zgaruvchilarini ketma-ket modelga qo’shib, bu uy xo‘jaligi a’zolari soni, shaharda istiqomat qilish, oliv ma’lumotga egalik va bandlik holatlari kabi ko’rsatkichlarni o’z ichiga oladi. Ko‘proq nazorat o‘zgaruvchilarini qamrab olish orqali yaxshi yo‘lga qo‘yilgan suv va kanalizatsiya tizimining aholi jon boshiga to‘g’ri keladigan daromadga ta’sirini aniqroq baholash mumkin. Yakuniy model natijalarini suv va sanitariya sharoitlarini yaxshilash uy xo‘jaliklarining aholi jon boshiga daromadlarini 11,7 foizga oshirishini ko’rsatadi.

Olingan regressiya natijalarining ishonchliligini tekshirish uchun bir qator testlar va hisob-kitoblar amalga oshirildi. Bunda, kuzatuv nuqtalari asosan nol chizig‘i atrofida to‘planganligi sezilarli noaniqlik yo‘qligini ko’rsatdi (2-rasmga qarang). Shuningdek, regressiya modelida foydalanilgan ko’rsatkichlar o‘rtasidagi multikollinearlik baholanib, tahlil jarayonida Variatsya inflyatsiya omili (VIF) yo‘qligi aniqlandi (9-jadvalga qarang).

Bundan tashqari, regressiya hisob-kitoblarida foydalanilgan iqtisodiy ko’rsatkichlarning normalligi tekshirilib, kuzatuv nuqtalarining ko‘pchiligi nazariy chiziq bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlandi (3-rasmga qarang).

Amaliyotda qo’llash uchun:

Uyda: Ozodalik va saranjom-sarishtalikka rioxasi qiling. Shaxsiy gigiyena va tashqi ko‘rinishingizga e’tiborli bo‘ling.

Umuman: Jamoat joylarida tartibli bo‘ling va ularni iflos qilmang.

Ishda/universitetda/maktabda: Toza va batartib muhitni ta’minalashga hissa qo‘shing. Chiqindilarning yig‘ishtirilishiga mas’uliyat bilan yondashing va jamoat joylarida gigiyena qoidalariiga e’tibor bering.

Jasorat (Jur'atlilik)

Izoh uchun

Avlodlar qalbiga, ajdodlar tabiatiga xos xususiyatlardan biri bu jur'atlilik va jasoratdir. Jasoratli inson o'z faoliyati davomida muvaffaqiyat qozonishi, yangi marralarni zabit etishi mumkin. Jasorat va jur'at insonga nafaqat, o'zi, oilasi, Vatani sha'nini himoya qilish, balki ma'naviy dunyosini asrash, iqtisodiy faoliyatda olg'a harakatlanish imkonini beradi. Masalan, u ma'lum bir shaxs yoki tadbirkorning kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni inobatga olgan holda biznes faoliyatida muhim qarorlarni qabul qilishida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy jihatdan qaraladigan bo'lsa jur'atli insonlar kapital bozorlarida investitsiyalar va korporativ munosabatlardagi noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida dadil qarorlarni qabul qila oladi. Misol uchun, mashhur bo'Imagan yoki sinovdan o'tmagan aktivlarga sarmoya kiritish, o'zgaruvchan bozorlarda barqaror turish, bozor tendensiyalariqa zid bo'lgan qarama-qarshi tanlovlarni qabul qilish va moliyaviy risklarni inobatga olgan holda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish jasoratning bir sifatidir.

Kapital bozorlariga investitsiya kiritishda doim noaniqlik va tavakkalchilik bo'lgan. Bunda, davlatning yuqori rivojlanish ko'rsatkichlariga ega bo'lishi investorlarda bozorga ko'proq mablag' joylashtirish ishonchini oshirib, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi uchun pul oqimini ko'paytiradi⁸.

Optimistik (jur'atli) odamlar yorqin kelajakka ishonadi va bu ularning kattaroq mukofot (daromad) uchun ba'zi tavakkalchiliklarga tayyor ekanligidan dalolat beradi. Bu nafaqat pul ishslash, balki yangi tashabbuslarni ishonch bilan qo'llab-quvvatlash deganidir⁹.

Kapital bozorlaridagi o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar ko'p hollarda texnika-texnologiyalardagi yangiliklar yoki siyosiy hodisalar bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda odamlar texnologik yangiliklar orqali nimani qanday investitsiya qilish va undan nima kutish to'g'risida zarur ma'lumotlarni oladi¹⁰.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot 7 ta mamlakat (AQSh, Germaniya, Kanada, Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Shveytsariya)ning 13 yillik (2010–2022) panel ma'lumotlari to'plamiga asoslangan.

Yuqorida qayd etilgan davlatlardagi kapital bozorlarining o'ziga xos jihatlarini o'rganish maqsadida "Yahoo Finance" platformasidan tegishli milliy fond bozori indekslarining tushumlari to'plandi. Shu bilan birga, ushbu mamlakatlar bo'yicha iqtisodiy o'sish, aholi jon boshiga yalpi ichki

⁸

http://bibliotheque.pssfp.net/livres/THE_ECONOMICS_OF_MONEYS_BAMKING_AND_FINANCIAL_MARKETS.pdf

⁹ <https://academic.oup.com/qje/article-abstract/113/2/387/1915714>

¹⁰<https://www.jstor.org/stable/116849>

mahsulotning o'sishi va inflyatsiya darajasiga oid Jahon Banki ma'lumotlaridan foydalanildi.

Izoh uchun

Tadqiqot insonlarda jasorat darajasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Bunda, jasoratni baholash uchun kapital bozori tushumlari (Market return) proksi ko'rsatkich sifatida foydalanildi. Inflyatsiya darajasi esa nazorat o'zgaruvchisi sifatida tanlandi.

Ma'lumotlar panel ma'lumotlari ekanligini hisobga olib, tadqiqot uchun tasodifiy effektlar (random) modeli tanlandi. Model tenglamasi esa quyidagicha:

$$Growth_{it} = \alpha + \beta_1 Market\ return_{it} + \beta_2 Inflation_{it} + \epsilon_{it}$$

Natijalarning aniqlilik darajasini taqqoslash uchun birlashtirilgan oddiy eng kichik kvadratlar usuli (Pooled OLS) metodologiyasi ham qo'llanildi. Ushbu metodologiya bo'yicha foydalanilgan regressiya formulasi quyidagicha:

$$Growth_{it} = \beta_0 + \beta_1 Market\ return_{it} + \beta_2 Inflation_{it} + \epsilon_{it}$$

Natijalar. Tasodifiy effektlar modelidan olingan natijalarga ko'ra, kapital bozori daromadining 1 foiz bandga oshishi iqtisodiy o'sishni 3,58 foiz bandga o'sishiga olib keladi (11-jadvalga qarang).

Birlashtirilgan oddiy eng kichik kvadratlar usuli (Pooled OLS) modelidan olingan natijalari esa kapital bozori daromadining 1 foiz bandga o'sishi iqtisodiy o'sishni 3,51 foiz bandga oshishini ko'rsatdi (12-jadvalga qarang).

Taqdiqotda tavakkalchilik ko'rsatkichi kapital bozori daromadlari orqali aniqlandi. Ikkala ekonometrik modelda ham kapital bozori daromadlari bilan ifodalangan tavakkalchilik ko'rsatkichi iqtisodiy o'sishni raq'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynashini va kapital bozori daromadining iqtisodiy o'sishga taxminan 3 foiz bandga ta'sir qilishi aniqlandi.

Amaliyotda qo'llash uchun:

Shaxsiy hayot: Qiyin bo'lsa ham to'g'rilingiga ishonchingiz komil bo'lgan fikringizda sobit turing. Adolatsizlikka toqatsiz bo'ling va zaiflarni himoya qiling.

Professional hayot: Tadbirkorlik va kasb faoliyatizingizni rivojlantirish yo'lidagi qiyinchiliklarni to'g'ri qabul qiling. O'z fikringizni bildirish yoki yangi g'oyalarni taklif qilishdan qo'rwmang.

O'zbek tili

Izoh uchun

Millatning birinchi ko'rinishi bu til. Shu bois ham dunyoda o'zini hurmat qiladigan har bir millat avvalo o'z ona tilini ulug'laydi. Chunki o'tmish, bugun va kelajak til bilan birga yashaydi, saqlanib qoladi va rivoj topadi. Biz o'z oldimizga dunyodagi rivojlangan mamlakatlар qatoridan joy olishdek maqsadni qo'ygan ekanmiz, avvalo ona tili va unga bo'lgan hurmatni qadriyat deb bilishimiz darkor.

Milliy yuksalish haqida so'z ketganda uning avvalo o'zbek tili bilan bog'liq ekanligini unutmaslik darkor. Shuning uchun ham o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. "O'zbek tili va adabiyoti" fani o'qituvchilari mehnatini rag'batlantirish, o'zbek tili bo'yicha xalqaro fan olimpiadasini o'tkazish hamda oliy ta'lif muassasalarida o'zbek tili filologiyasi yo'nalishi bo'yicha davlat granti asosida o'qishga qabul qilish bu boradagi muhim qadamlardandir.

Ona tilini mukammal bilish iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatli. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, ona tilini puxta o'rganish inson kapitaliga qilingan muhim sarmoyadir. Ona tiliga asoslangan ta'lif (Mother Tongue Based) aholining savodxonligini oshirish bilan birga muvaffaqiyatli o'qish va mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, mahalliy tilga ko'proq e'tibor qaratadigan mamlakatlarda ijtimoiy taraqqiyot, harakatchanlik va kapitalning yaxshilanishi aniqlangan¹¹.

YUNESKO (UNESCO) tadqiqotiga ko'ra, o'rta muddatli istiqbolda ona tiliga asoslangan ta'lif dasturlarida ta'lif olgan bolalar nafaqat savodxonlik ko'nikmalarini, balki o'ziga bo'lgan ishonch va madaniy g'ururni ham oshiradi¹². Ona tilini mukammal bilish ikkinchi chet tilini o'rganishga yordam berib, o'z navbatida ish haqining (ikkinchi tilni bilgani uchun) oshishiga olib keladi. Shuningdek, ona tilini o'rganishdagi ko'nikmalardan chet tillarni (ikkinchi, uchinchi) o'zlashtirishda keng foydalaniladi. Bunda ona tilidan to'g'ri foydalanish ikkinchi tilni o'rganishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi amaliyotda o'z isbotini topgan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotdagi hisob-kitoblarda O'zbekistonda 2021-yil uchun uy xo'jaliklari byudjetini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalaridan foydalanildi. Tadqiqotda ona tilini bilish umumiyligi ta'limdagi muvaffaqiyatni (ta'lif yillarini) oshiradi va ikkinchi chet tilini o'rganishda yordam beradi, degan gipotezalar shakllantirilgan. Ushbu gipotezalarni tekshirishda regressiya modelidan foydalanildi.

Tadqiqotning birinchi gipotezasini tekshirishda quyida keltirilgan regressiya modelida aholining jinsi, yoshi hamda yashash hududi nazorat o'zgaruvchisi sifatida qo'llanilgan.

¹¹<https://www.rutufoundation.org/what-is-mother-tongue-education/#:~:text=Mother%20tongue%20education%20refers%20to,language%20spoken%20by%20the%20mother>

¹²<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000247333>

$$Edu_{years} = \beta_0 + \beta_1 \times language_{native} + \beta_2 \times age + \beta_3 \times gender \\ + \beta_4 \times province$$

Bu yerda:

Edu_{years} – ta’lim muddati o’zgaruvchan (yillar);
 $language_{native}$ – ona tili o’zbek tili bo’lgan 25 yoshgacha bo’lgan respondent;
 age - respondentning yoshi;
 $gender$ - respondentning jinsi;
 $province$ - yashash hududi.

O’zbek tilini bilishning ikkinchi tilni o’zlashtirish ehtimoliga ta’siri quyidagi regressiya modeli asosida baholandi:

$$language_{second} \\ = \beta_0 + \beta_1 \times Edu_{highest} + \beta_2 \times language_{native} + \beta_3 \times age \\ + \beta_4 \times gender$$

Bu yerda:

$language_{second}$ - respondentning ikkinchi tilni bilishining shartli o’zgaruvchisi (1 dan 9 gacha),

$Edu_{highest}$ - ta’lim darajasining shartli o’zgaruvchisi (1 dan 13 gacha ta’lim darajasi), bunda oliy ma’lumot 6 dan yuqori (6-bakalavr, 7-magistr va boshqalar) toifali (shartli) o’zgaruvchidir.

$language_{native}$ - ona tili o’zbek tili bo’lgan 25 yoshga to’limgan respondent;

age - respondentning yoshi;

$gender$ - respondentning jinsi;

$province$ - yashash hududi.

Bundan tashqari, ikkinchi tilni bilish ish haqi ustamalarining oshishiga olib kelishini baholashda *Minscning*¹³ ish haqi modeliga asoslanildi. Bunda chet tilini bilishning ish haqiga ta’siri oddiy regressiya va o’zgarmas effekt (fixed effect) modellaridan foydalangan holda baholandi. Natijalarning ishonchliligi tekshirish uchun avtokorrelyatsiya, geteroskedastiklik va Vayt testlaridan foydalanildi.

Natijalar. Ekonometrik tahlillar ona tilini bilish boshqa tillarni o’zlashtirish ehtimoli va umumiyligi ta’lim darajasining oshirishini ko’rsatdi. Shuningdek, o’rta yoki oliy ma’lumotga ega bo’lgan yoshlar orasida chet tillarini bilish ehtimolligi yuqori ekanligi aniqlandi. O’zbekistonda har bir qo’shimcha o’qilgan ta’lim yili ish haqining 8,79 foizgacha o’sishiga (*dastlabki tadqiqotda Jizzax viloyatida 12,5 foizgacha*) olib keladi (13-jadval).

¹³ https://en.wikipedia.org/wiki/Mincer_earnings_function

Amaliyotda qo'llash uchun:

Shaxsiy hayot: O'zbek tilida asarlar, jumladan san'at asarlari, kitoblar va boshqa materiallarning yaratilishi, turli dasturlarning ishlab chiqilishiga hissa qo'shing. O'zbek tili va adabiyotini boyitish, o'zbek tilining nufuzini oshirishga harakat qiling.

Harakatda baraka

Izoh uchun

Har bir insonning hayotida qanday yutuqlarga erishishi, qanday marralarni zabit etishi, jamiyatdagi o'rni va obro'si ko'p jihatdan uning harakatlariiga, mehnat qilishi va intilishiga bog'liq. Agar yoshlar yaxshi o'qib, nufuzli oliv ta'llim maskanida tahsil olsa va o'z ustida tinimsiz ishlab yaxshi mutaxassis bo'lib yetishsa, avvalo o'z oilasi farovonligi, qolaversa Vatani taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shadi. Axir xalqimiz orasida "harakatda baraka bor" degan naql bejiz paydo bo'limgan. U minglab yillik hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan.

Insonning shaxsiy faolligi, intiluvchanligi va daromad o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi tadqiqotlar nisbatan kam hisoblanadi. Misol uchun, *Long* kollej talabalaridan to'plangan ma'lumotlardan foydalangan holda daromad va o'ziga xos motivatsion omillar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib chiqdi¹⁴. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, odamlarning moliyaviy yutuqlarga intilishi va ularning yillik daromadlari o'rtasida ijobjiy bog'lanish mavjud.

Shu bilan birga, daromadning motivatsiyaga ta'sirini baholovchi tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, *Zajak* olib borgan tadqiqotlari natijasida kafolatlangan ish haqi ish joyidagi stresslarni yengillashtiradi va ishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishini aniqlagan¹⁵.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning asosiy tahliliy maqsadi harakati sust va harakati faol uy xojaliklari o'rtasidagi iqtisodiy holatning farqlarini aniqlashdan iborat. Buning uchun, regressiya tenglamasida mustaqil o'zgaruvchilar sifatida "harakatda baraka qadriyati mavjud emas" o'zgaruvchisi va boshqa nazorat o'zgaruvchilari, shuningdek, erksiz o'zgaruvchi sifatida uy xo'jaligining jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi qo'llanilgan.

$$\log(pcinc) = f(no_action, urban, heduc_exists)$$

Tadqiqotda O'zbekistonning Jizzax viloyatidagi 610 ta uy xo'jaligi gamrab olingan tanlanma so'rov ma'lumotlaridan foydalanildi. So'rovning asosiy maqsadi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlidan o'zlarining harakatlari va shaxshiy intilishlari orqali moliyaviy va ijtimoiy holatini yaxshilash bo'yicha tashabbuslari to'grisidagi savollar o'rganilgan.

"Harakatda baraka" tushunchasini modelda ifodalash uchun "harakatda baraka qadriyati mavjud emas" dummy o'zgaruvchi (*no_action*) yaratildi. Agar uy xo'jaligida passiv xulq-atvor belgilari ega bo'lib, ijtimoiy muhtojlikdan chiqish uchun aniq reja va harakatlari bo'lmasa ushbu xonadonda "harakatda baraka" qadriyati belgilari mavjud emas deb topiladi va uy xo'jaligida 1 qiymati beriladi, aks holda 0 qiymatini oladi.

Natijalar. Harakatda baraka qadriyati bo'limgan uy xo'jaliklarining aholi jon boshiga daromadlari pastroq bo'lishini aniqlandi. Amalga oshirilgan regressiya natijalariga ko'ra, (14-jadvalda) uy xo'jaligida

¹⁴ <https://doi.org/10.1177/001979399504800209>

¹⁵ https://api.semanticscholar.org/CorpusID:24512529_2

“harakatda baraka” qadriyatining yo‘qligi (“no_action” o‘zgaruvchisi bilan ifodalangan) va uning jon boshiga to‘g’ri keladigan daromad (log(pcinc)) o‘rtasidagi manfiy bog‘liqlik mavjud. Har uchala modelda ham “no_action” koeffitsienti manfiy va statistik jihatdan ahamiyatga ega. Bundan kelib chiqadiki, farovon kelajakka intilish va harakat qilish qadriyatlari uy xo‘jaliklarining jon boshiga to‘g’ri keladigan daromadlarini 0,6 foiz bandga o‘sishiga olib keladi. Natijalarning mustahkamligini tekshirish maqsadida chiziqlilik, multikolleniarlik va normallikni tekshiruvchi testlar o’tkazildi. O’tkazilgan testlarning barchasi modelning mustahkam ekanligini ko‘rsatdi.

Amaliyotda go‘llash uchun:

Barcha sharoitlarda: Mehnatsevar bo‘ling va ishga sidqidildan yondashing. Har bir ishni to‘liq va puxta bajarishga harakat qiling.

Ishda/universitetda/maktabda: Ilm olishga ishtiyoq bilan yondashing va sidqidildan ishlang. Tashabbuskor bo‘ling va mukammallikka intiling.

Erkin va mustaqil fikrlash

Izoh uchun

Ma'lumki, bugun dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lib, erkin va mustaqil fikrlash hamda yangidan-yangi innovatsion g'oyalarni yaratish hisoblanadi. Erkin va mustaqil fikrlash bo'lmasan jamiyat taraqqiyotda ortda qolishi, korrupsiya girdobiga tushishi, ijtimoiy adolatsizlikning avj olishini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Konstitutsiyamizda ham har kim, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega ekanligi mustamkamlab qo'yilgan. Shuning uchun ham bugun va kelajakda so'z erkinligini ta'minlash va mustaqil fikrlash eng muhim qadriyatlar sirasiga kirmog'i darkor.

Erkin va mustaqil fikrlash hamda so'z erkinligi bilimlarni tarqatish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash orqali raqobatni kuchaytirishga hissa qo'shadi, shuningdek, bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, so'z erkinligi innovatsiyalarning rivojlanishiga olib keladi, innovatsiyalar esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishning asosiy omilidir.

So'nggi yillarda innovatsiyalar va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning bir-biriga bog'liq ekanligi tadqiqotchilar va siyosatchilar tomonidan tez-tez tilga olinmoqda¹⁶. Artz va boshqalar (2010) o'z tadqiqotlarida ro'yxatga olingan patentlar va boshqa turdagи innovatsiyalarning AQSh va Kanadaning turli soha korxonalari faoliyatiga ta'sirini tadqiq qilib, innovatsiyalar korxona faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan¹⁷.

Ushbu tahlilda biz 2000-2019 yillarni qamrab olgan Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston), Kavkaz (Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya) va Mo'q'uliston mamlakatlari bo'yicha ma'lumotlardan foydalandik. Ushbu tahlillarda erkin fikrlash va innovatsion g'oyalarni yaratishga ijodkorlik (patent- mamlakatda ro'yxatdan o'tkazilgan patentlar) ko'rsatkichi proksi sifatida foydalanildi. Ushbu tadqiqotda ijodkorlik va YalM o'rtafigi o'zaro bog'liqlik regression tahlil qilindi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot patentlarning 2015-yil narxlari dan, YalMga ta'sirini baholaydi (model YalM logarifmidan, ya'ni o'sish sur'atidan foydalanadi). Nazorat o'zgaruvchilari sifatida kapitalning yalpi shakllanishi, savdo ochiqligi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kabi ko'rsatkichlardan foydalanildi. Ushbu ko'rsatkichlar Jahon Bankining ma'lumotlar bazasidan olingan (15-jadvalga qarang).

Model tenglamasi quyidagicha:

$$\ln GDP = \beta_0 + \beta_1 * Patent + \beta_2 * Capital + \beta_3 * Trade + b_4 * FDI$$

O'zgarmas yoki tasodifiy ta'sir (random and fixed effect) modelini tanlash uchun Xausman testi qo'llanildi. Test natijasi (prob > chi2 = 0,000) o'zgarmas ta'sir modelining afzalligini ko'rsatadi.

Natijalar. Olingan natijalarning ishonchlilik testlari orqali tekshirilganda, modelda o'zaro bog'liqlik, geteroskedastiklik va ketma-ket

¹⁶ <https://innovation-entrepreneurship.springeropen.com/articles/10.1186/s13731-016-0061-9>

¹⁷ https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042813005624?ref=pdf_download&fr=RR-2&rr=7f3f53c6d88b1083

korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi (17-jadvalga qarang). Shu sababli panelni tuzatish orqali standart xato modellaridan (PCSE) foydalanildi.

PCSE modeli natijalariga ko'ra, har 1ta qo'shimcha patent YalMning 0,05% o'sishiga olib kelishi aniqlandi (16-jadvalga qarang). Olingan natijalardan ko'rishimiz mumkinki, mustaqil fikrlash va innovatsion g'oyalarni yaratish iqtisodiy o'sishga ijobjiy ta'sir qiladi.

Amaliyotda qo'llash uchun:

Shaxsiy hayot: Turli mavzularda ko'proq o'qing, tanqidiy munozaralarda qatnashing va ikkilangan narsangizga oydinlik kriting. O'z fikringizni dalil va mantiq asosida shakllantiring.

Ishda/universitetda/maktabda: Muhokama jarayonida faol ishtirok eting, o'z qarashlaringizni obyektiv baholashga urining va ijodiy fikrlang. Garchi sizning qarashlaringizdan farq qilsada, yangi istiqbolli g'oya va takliflarga nisbatan ochiq munosabatda bo'ling.

Yelkadoshlik

Izoh uchun

Xalqimizning turmush tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, zamonlar osha sayqal topib kelayotgan udum va an'analari, qadriyatlari qatorida yelkakdoshlikni ham ko'rish mumkin. Yelkadoshlik har qanday vaziyatda ham insonlarni o'zaro birdam va bahamjihat yashashga undab, ular o'rtasida mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlaydigan qadriyatlardan biri hisoblanadi. U qalbimizda hamdardlik, birdamlik tuyg'usini kamol toptiradi. Zero eng og'ir damda bir-biriga yelkadoshlik bo'lish chin insoniy fazilatlar sirasiga kiradi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan yelkadoshlik jamoa bilan umumiylar maqsad yo'lida ishlash, o'zaro bir-birini qo'llab - quvvatlash va ko'maklashishdir. Yelkadoshlik ish samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishishda yordam beradi. Bahamjihatlikdagi harakat har qanday tashkilot yoki muassasada jamoaviy ish muvaffaqiyatiga hissa qo'shadigan ijobjiy qadriyat sifatida keng tan olingan. (Vageman, 1997)¹⁸.

Jamoaviy ishslash va tashkilotda mehnat samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik H.I.Hamis (2019)¹⁹ tomonidan bir nechta o'rta maktablar orasida o'tkazilgan tadqiqotda o'rganilgan. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, jamoabolib ishslash tashkilotning samaradorligi va mehnat unumdonligining ortishiga olib kelgan. L.Bokay (2023)²⁰ tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, bir nechta korxonalarda ish faoliyati davomida o'zaro hamkorlik qilish usulidan foydalanish ushbu yondashuvdan foydalanmaganlarga qaraganda yaxshiroq natijalarga erishish imkonini bergen.

Metodologiya. Jamoaviy ish omili ishchilarining ish haqiga qanday ta'sir qilishi quyidagi ekonometrik model asosida tahlil qilinadi:

$$\text{Insalary} = \beta_0 + \beta_1 * \text{teamwork} + \beta_2 * \text{experience} + \beta_3 * \text{gender} + \beta_4 * \text{FDI}$$

Ushbu tadqiqotda MHTI tomonidan o'tkazilgan "Jamoaviy ishslash qobiliyatini baholash so'rovnomasi" natijalaridan foydalanildi. So'rovnomada jami 2356 ta respondent qatnashdi.

Natijalar aniqligini oshirish maqsadida kuzatuvdagi 20 mln.so'mdan ortiq va 500 ming so'mdan kam ish haqi (salary) dastlabki ma'lumotlar to'plamidan chiqarib tashlandi (18-jadvalga qarang). Hosil bo'lgan namuna 1509 nafar respondent to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Jamoaviy ishslash indeksi (teamwork) hamkorlikda ishslash bilan bog'liq 9 ta savol yig'indisiga asoslanadi. Respondentlarning tajribasi (experience) va jinsi (gender) nazorat o'zgaruvchilari sifatida ko'rib chiqildi.

Natijalar. Regressiya natijalariga ko'ra, jamoaviy ishslash indeksi ish haqi migdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi (ahamiyatlilik

¹⁸ <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0090261697900279>

¹⁹ https://www.academia.edu/43639390/THE_RELATIONSHIP_BETWEEN_TEAMWORK_AND_ORGANIZATIONAL_PERFORMANCE_EXPERIENCE_FROM_COMMUNITY_BASE_SECONDARY_SCHOOLS_IN_DAR_ES_SALAAM

²⁰ <https://doi.org/10.35678/2539-5645.2%2839%29.2023.45-58>

darajasi 10%). Indeksning 1 bandga ko'tarilishi ish haqining 0,9 foizga oshishiga hissa qo'shamdi. Shu bilan birga, qo'shimcha 1 yillik tajriba ish haqining 1,8 foizga oshishiga olib keladi (19-jadvalga qarang). Model natijalarining aniqligi baholash maqsadida multikollinearlik va geteroskedastiklik testlaridan foydalanilgan

Amaliyotda qo'llash uchun:

Barcha sharoitlarda: Atrofingizdagilarni qo'llab-quvvatlang, ularga yordam taklif qiling va fikriga qulqoq tuting. Boshqalarning muvaffaqiyatidan mamnun ekanligingizni bildiring va zarurat sezilsa, ularga dalda berib turing.

Ishda/universitetda/maktabda: Jamoada hamkorlik va ishchanlik muhitini shakllantiring. Guruh ishida faol ishtirok eting va hamkasblar yoki sinfdoshlar bilan mustahkam do'stona munosabatlarni o'rnating.

Bag'rikenglik

Izoh uchun

Bugungi globallashuv va geosiyosiy ziddiyatlar kuchaygan bir davrda bag'rikenglik, degan tushunchaning ahamiyati tobora ortib borayotir. Konstitutsiyamizda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bag'rikenglik turli millat va elat vakillarini olijanob q'oya va ezgu niyatlar yo'lida hamkor va bahamjihat yashashga undaydi.

Bag'rikenglik adolat va sabr tushunchalari bilan ham chambarchas bog'liq. Shuningdek u ijtimoiy, diniy, siyosiy bag'rikenglik kabi tushunchalar sifatida ham qo'llaniladi. Xalqimiz o'z tarixi mobaynida bag'rikenglikning eng yaxshi namunalarini ko'rsatib kelgan va ma'rifikatga asoslanuvchi ushbu oliv qadriyat xalqimiz turmush tarzining ajralmas bir qismiga aylangan. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash masalasi alohida maqsad sifatida bayon etilgani bejiz emas.

Shu o'rinda bag'rikenglikning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini ham unutmaslik lozim. Dunyo olimlari olib borgan tadqiqotlar bag'rikenglik innovatsion, texnologik va iqtisodiy rivojlanishning o'sishini tezlashtirishini ko'rsatdi. Bundan tashqari, bag'rikenglik inson kapitali orgali iqtisodiy rivojlanishga ijobjiy ta'sir qiladi²¹. Shu bilan bir qatorda, Audrech, Seyts va Rush²² AQShning 50 ta shtati va Xitoyning 31 ta hududidan olingan ma'lumotlar asosida olib borilgan tadqiqotlarida jamiyatga ishonchni oshirishda bag'rikenglik muhimligini ta'kidlaydi. Bag'rikenglik va ishonch shu tariqa davlatlardagi innovatsion jarayonlarning faollasuviga turtki bo'ladi.

Diniy bag'rikenglik ta'minlangan davlatlar turli hududlardan kelgan muhojirlarni o'ziga jaib qiladi va bu, ma'lum bir iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida raqobatbardosh ishchi kuchining shakllanishiga olib keladi²³. Natijada, bag'rikenglik o'z o'rnini yangilik, ijodkorlik va ishchi kuchi bozoridagi xilma-xillikka imkon berib, jamiyatdagи hayot sifati va farovonligini oshiradi.

Bag'rikenglik jamiyatda hamjihatlikka yordam beradi, kelishmovchiliklarni kamaytiradi va inson huquqlarini qo'llab-quvvatlagan holda barqarorlikni ta'minlab, iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda turli mamlakatlardagi etnolingvistik xilma-xillik indekslaridan hamda Jahon Banki ma'lumotlar bazasidan foydalanildi.

Tadqiqot 2004-2013 yillarni qamrab olgan 93 ta rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarga oid ma'lumotlarini o'z ichiga qamrab oladi. Tadqiqotda asosiy mustaqil o'zgaruvchi sifatida etnik fraksiyalanish

²¹ <https://doi.org/10.1007/s00191-020-00715-2>

²² <https://doi.org/10.1007/s40821-017-0086-4>

²³ <https://ssrn.com/abstract=3082292>

indeksidan (EF) foudalanildi. Etnik xilma-xillik indeksi 0 dan 1 gacha o'zgarib turadi. Bu yerda 0 xilma-xillik yo'qligini va 1 har bir kishi boshqa etnik guruhgaga tegishli ekanligini anglatadi. Shuningdek, bog'liq o'zgaruvchi sifatida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (GDPpercapita), nazorat o'zgaruvchilari esa urbanizatsiya darajasi (Urbanization), infliyatsiya (Inflation), savdo ochiqligi (TradeOpenness) va xorijiy investitsiyalar (FDI), ishsizlik (Unemployment) va yalpi kapital shakllanishi (GrossCapitalFormation) hisoblanadi.

Regressiya tahlili quyidagi formula asosida amalga oshrildi:

$$\begin{aligned} \ln GDPpercapita &= \beta_0 + \beta_1 \times \ln EF + \beta_2 \times \ln EFsqrt + \beta_3 \times \text{Urbanization} \\ &+ \beta_4 \times \text{Inflation} + \beta_5 \times \text{Unemployment} + \beta_6 \times \text{TradeOpenness} \\ &+ \beta_7 \times FDI + \beta_8 \times \text{GrossCapitalFormation} + \epsilon \end{aligned}$$

O'zgarmas (fixed) va tasodifiy (random) effekt modellari o'tasida mos usullarni aniqlash maqsadida Xausman testidan foydalanildi va olingan natijalarga ko'ra, mamlakatning har bir daromad toifasi uchun ishonchli modellar tanlandi.

Olingan baholarning barqarorligini tekshirish uchun Breysh-Pagan va Vayt (White) testlari qo'llaniladi (21-jadvalga qarang).

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, etnik xilma-xillik indeksi daromad sinfiga qarab turli mamlakatlar uchun turli xil ta'sir ko'rsatadi (20-jadvalga qarang). Yuqori daromadli mamlakatlar uchun etnik xilma-xillik indeksi o'shining ta'siri ijobji; boshqacha aytganda, etnik xilma-xillik indeksining 1% ga o'sishi, boshqa o'zgaruvchilarni o'zgarmas holda saqlaganda, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning o'racha 1,17% ga o'sishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, etnik xilma-xillikni va bag'rikenglikni oshishi iqtisodiy farovonlikni mustahkamlaydi.

Amaliyotda go'llash uchun:

Barcha sharoitlarda: E'tiqodi, madaniyati va kelib chiqishidan qat'i nazar barchaga hurmat bilan munosabatda bo'ling. Kamsituvchi hazil yoki gap-so'zlardan saqlaning. Biron qarorga kelishdan oldin uning mohiyatiga yeting.

Ishda/universitetda/maktabda: Xilma-xillikka hurmat bilan yondashing va inklyuzivlik, ya'ni tashqi ko'rinishi, kelib chiqishi, jinsi va salomatligidan qat'i nazar barchaga jamiyat hayotining turli jabhalarida ishtirok etish imkoniyatini beruvchi qoidaga amal qiling. Kamsituvchi xatti-harakatlarga qarshi bo'ling va hamma uchun teng imkoniyatlarni himoya qiling.

Silai rahm

Izoh uchun

Xalqimiz azaldan uzoq-yaqin qarindoshlar va do'stlar orasida o'zaro hurmat hamda ko'makka asoslangan mustahkam rishtalarni milliy qadriyat sifatida saqlab keladi. Bu silai rahmdir. Silai rahm qilish – o'zgalarga nisbatan qarindoshlariga g'amxo'r va muhabbatliroq bo'lish, ulardan xabardor bo'lib, moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab turishdir. Ota-on, aka-uka, opa-singil kabi qon-qarindoshlar silai rahmga eng haqdor kishilardir. Zotan, hayotning fayzi va barakasi ota-on, farzandlar, aka-uka va boshqa qarindoshlarning ahil va tinch-xotirjam yashashida.

Silai rahm iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatli. Masalan, uning xususiyatlardan biri – altruizmni (o'z *manfaatini ko'zlamagan holda boshqalarga ko'maklashish va beg'araz yordam berish*) olib ko'raylik. Altruizmning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri iqtisodchilar, psixologlar va sotsiologlar tomonidan o'rganilgan. Iqtisodchilar altruizm, birinchi navbatda,adolat me'yorlari bilan bog'liq, deb ta'kidlasa, ijtimoiy psixologlar empatiyani altruistik xatti-harakatlarning asosiy omillaridan biri, deb biladi²⁴.

Bundan tashqari, altruizm insonlar orasida bir-biriga mas'uliyat hissini oshirib, daromadlarning teng taqsimlanishida va o'zaro qo'llab-quvvatlashning yaxshilanishiga olib keladi²⁵.

Ushbu tadqiqotda silai rahmning YalMdagi samaradorligini baholash uchun Jahon banki ma'lumotlaridan foydalanildi. Foydalanilgan ma'lumotlar 2010–2019 yillarga oid bo'lib, 84 ta davlat, jumladan, O'zbekistonni ham o'z ichiga oladi.

Metodologiya. Tadqiqotda silai rahmning YalMdagi samaradorligini baholash uchun proksi o'zgaruvchi sifatida xayriya indeksidan (*InGivingIndex*) foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot natijalarini yanada aniqroq bo'lishi uchun nazorat o'zgaruvchilari sifatida aholi soni (*lnPOP*), urbanizatsiya darajasi (*Urban in %*) va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning YalMga nisbati (% hisobida) (*FDI*) tanlab olindi.

Tadqiqotda qo'llanilgan model tenglamasi esa quyidagicha:

$$\begin{aligned} \ln GDP_{per capita_{it}} &= \beta_0 + \beta_1 * \ln GivingIndex_{it} + \beta_2 * \ln POP_{it} + \beta_3 * Urban_{it} + \beta_4 \\ &\quad * FDI_{it} + \varepsilon_{it} \end{aligned}$$

O'zgarmas va tasodifiy effektlar modelidan birini tanlash maqsadida Xausman testidan foydalanildi va testi natijalariga ko'ra, ($p = 0,064 > 0,05$) tasodifiy effektlar (random) modelini qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ushbu modelning ishonchlilikini tekshirish maqsadida bir qancha testlar o'tkazildi.

Natijalar. Olingan natijalarga ko'ra, mamlakatda xayriya indeksining 1 foizga ortishi aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning 0,2

²⁴ <https://www.nature.com/articles/srep31961>

²⁵ <https://www.jstor.org/stable/2729219>

foiz o'sishiga olib keladi (22-jadvalga qarang). Biroq, geteroskedastiklik testi natijasi modelda standart xatolar bilan bog'liq muammo borligini ko'rsatdi (23-jadvalga qarang). Shu sababli natijalarning ishonchliligini oshirish uchun tasodifiy effektlar, mustahkam standart xatolar va mos panel ma'lumotlarining chiziqli modellari qo'llanildi. Muqobil tarzda amalga oshirilgan regressiya natijalari (2 va 3 tenglamalar) dastlabki olingan natijalar bilan bir xil bo'lib, foydalanilgan modellarning ishonchli ekanligidan dalolat beradi.

Amaliyotda qo'llash uchun:

Barcha sharoitlarda: Boshqalarga nisbatan mehribon va rahmdil bo'ling. Ezgu niyatlariga erishishida ular bilan hamnafas bo'ling va xatolarini kechiring. Yordamga muhtojlarga ko'mak bering bering.

Ishda/universitetda/maktabda: G'iybat va salbiy fikrlardan yiroq bo'ling. Odamlarni tushunish va ularga yana bir imkoniyat berish uchun tayyor bo'ling. Mehribonlik va hurmatga asoslangan madaniyatni targ'ib qiling.

Tabiat bilan uyg'unlik.

Izoh uchun

Inson hayotining tabiat bilan uzviy bog'liqligi minglab yillar oldin o'z isbotini topgan haqiqat. Tabiatdagi har bir hodisa, voqealari va jarayonlar inson hayotiga bevosita ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Shuning uchun bugungi kunda tabiatga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash va u bilan uyg'un holda yashash eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Eng muhimmi, tabiatga muhabbat tuyg'usini yoshlar ongiga qadriyat sifatida singdirish darkor. Zotan, tabiatni asrash insoniyatni asrash, demakdir.

Atrof-muhit omillarining aholi salomatligi va mehnat unumdorligiga ta'siri o'nlab yillar davomida tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, sog'lom aholi va ishchi kuchi farovonligi mehnat unumdorligini oshiradi, ishchilarning vaqtincha nofaolligi bilan bog'liq xarajatlarini kamaytiradi va oxir-oqibat aholining moliyaviy farovonligini yaxshilaydi.

Ko'pgina xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xodimlarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash moliyaviy holatga ijobjiy ta'sir qiladi. Yaxshi kayfiyatga ega sog'lom xodimlar ko'proq ishchanlik qobiliyatiga ega bo'lib, qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ishlarni bajarishi mumkin.

Aksincha, yomon ekologik muhit va tabiat bilan uyg'unlikning yo'qligi nafas yo'llari (havo sifatining pastligi sababli) va ichak kasalliklarining (suv va oziq-ovqat sifati pastligi sababli) tarqalishiga olib kelishi mumkin. *Gallap* tomonidan olib borilgan so'rovrlarga ko'ra, nosog'lom ishchilar korxonalarga yiliga dunyo bo'yicha o'rtacha 153 milliard dollar zarar keltirishi aniqlangandir²⁶.

Metodologiya. Ushbu tahlillarni olib borishda Jahon Bankining 169 ta mamlakatga oid ma'lumotlaridan foydalanildi. Bu ko'rsatkichlar aholi jon boshiga CO2 emissiyasi va PM2.5 miqdori (m^3 ga to'g'ri keluvchi mikron hajmi), suv taqchilligi va tabiiy o'rmonlar (million m^3) atrof-muhit sharoitlari uchun proksi o'zgaruvchilar sifatida foydalanildi.

Shuningdek, ushbu tadqiqot uchun kapital omili sifatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitaldan (capital) foydalanildi. Ishchi kuchining samaradorligi nafas yo'llari kasalliklari (respiratory) va suv taqchilligidan kelib chiqadigan o'lim ko'rsatkichlari (stress) orqali teskari usul bilan ifodalanadi.

Ekonometrik model quydagicha ifodalanadi:

$$GDP\widehat{per capita} = \beta_0 + \beta_1 * capital + \beta_2 * respiratory + \beta_3 * stress \quad (3)$$

Nafas yo'lli kasalliklari, o'z navbatida, ekologik omillar: CO2 va PM2.5 miqdori, tabiiy o'rmonlar hajmiga bog'liq.

$$respiratory = \beta_0 + \beta_1 * forest + \beta_2 * CO2 + \beta_3 * PM2.5 \quad (4)$$

²⁶ https://www.huffpost.com/entry/unhealthy-employees-cost-153-billion_n_1016568

To'rtinchi (4) tenglamada baholangan *respiratory* qiymati keyinchalik (3) modelda foydalaniladi. Ushbu metodologiya atrof-muhit omillarining YalMga bilvosita ta'sirini baholash va modeldag'i endogenlikdan ochish imkonini beradi.

Natijalar. Regressiya modellari natijalariga ko'ra, nafas yo'li kasalliklari o'limining 10 kishiga (100 000 aholiga) ko'payishi aholi jon boshiga YalMni (2015-yil narxlarida) 631,2 dollarga kamaytiradi (24-jadvalga qarang).

Olingan regressiya natijalarining ishonchlilagini tekshirish uchun qo'shimcha testlar amalga oshirildi. Natijalari shuni ko'rsatdiki, regressiya modelida foydalanilgan ko'rsatkichlarning o'rta sidagi multikollinearligi baholanib, tahlil jarayonida variatsya inflyatsiya omili (VIF, qiymati = 1.20) yo'qligi aniqlandi. Breysh-Pagan testi natijalari $Prob > chi^2 = 0.00$ ga teng ekanligini ko'rsatib yuqoridagi modeldan foydalanish to'gri ekanligini ko'rsatadi.

Nafas yo'li kasalliklarining tarqalishiga tabiatdagi ifloslanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan PM2.5 ta'sir qilishi baholanib, PM2.5 emissiyasining 1 mikronga kamayishi (m^3 maydonga) nafas yo'li kasalliklaridan o'limni 2-3 kishiga (100 ming aholiga) kamaytirish imkonini beradi.

Amaliyotda qo'llash uchun:

Barcha sharoitlarda: Atrof-muhitga siz ham ta'sir qilishingiz mumkinligini yodda tuting. Kundalik iste'molningizni nazorat qiling va resurslardan qayta foydalanishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlang.

Shaxsiy hayot: Vaqtningizning ma'lum bir qismini tabiat qo'ynida o'tkazing, uning go'zalligini qadrlang va undagi nozik muvozanatni asrang.

Rozi-rizolik

Izoh uchun

Otaning o'g'ildan rozi bo'lishi yoki aksincha o'g'ilning otadan rozi bo'lishi, tadbirkorlarning o'zaro savdo munosabatlarida bir-biridan rozi bo'lishi, insonning kimligidan qat'i nazar uning roziligidan mol-mulkiga egalik qilmaslik, insonning ta'lim va tarbiya bergan ustozlaridan minnatdor bo'lishi xalqimiz orasida ko'p bora takidlanib, qadriyatga aylangan.

Bu borada buyuk mutafakkirimiz A. Navoiyning ustozni rozi qilishlik to'g'risidagi quyidagi so'zlarini eslash joiz: "Agar shogird shayxulislom, agar qozidur, agar ustoz rozi – Tangri rozidur"²⁷.

Konstitutsiyamizda har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga egaligi, hech kimga uning roziligidan qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi, hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emasligi belgilangan. Shuningdek, birovning shaxsiy mulkini faqat uning roziligi bilangina olinishi, bunday almashinuv faqat ikki tomonning rozi-rizoligi bilan vujudga kelishi mustahkamlab qo'yilgan.

Bundan tashqari rozi-rizolik qadriyati insonlarning hayotda yashashi, mehnat qilishi, ta'lim olishi, jamiyatda o'z o'rniiga ega bo'lishi va bir-birini hurmat qilishida muhim hisoblanadi. Insonning hayotdan, jamiyatdan, uni o'rab turgan atrof-muhitdan rozi-rizo bo'lishi juda ko'plab ilmiy, diniy hamda tarbiyaviy manbalarda ulug'lab kelingan.

Insonda bunday hislatlarning shakllanishi yoshlarning birinchi navbatda dunyo hodisalaridan qattiq ta'sirlanishi, ishi yurishmay qolganda tushkunlikka tushishi, jamiyatdagi ayrim hodisalardan o'zini yo'qotib qo'yishining oldini oladi.

Amaliyotda qo'llash uchun:

Barcha sharoitlarda: Har doim boshqalarning imkoniyati va qarashlarini hurmat qiling. Ularning nafsoniyatiga tegmang, shaxsiy hududi, ma'lumotlari va mulkiga nisbatan harakatga kirishishdan oldin roziligidini oling.

Shaxsiy hayot: Boshqalar nimani xohlashi yoki ular nimani ma'qlu ko'rishi haqida xulosa chiqarishga shoshilmang. O'z ehtiyojingiz va hohish-istagingiz haqida ochiq va ro'y-rost gapiring.

²⁷ <https://qadriyat.uz/wp-content/zkuol/gentle/428/>

Ilovalar


1-jadval. Ota-on bilan yashashning daramodga ta'siri (Propensity score matching).

	(1)
O'ZGARUVCHILAR	LnIncome
r1vs0.Ota-on bilan yashash	0,0861*** (0,0237)
Kuzatishlar	3,751
Qavslar ichidagi standart xatolar	
*** p<0,01, ** p<0,05, * p<0,1	

2-jadval. Moslashtirish sifatni tekshirish.

O'zgaruvchi	Namuna	Ta'sir	Nazorat o'zgaruvchilari	Farq	S.X	T-stat
LnIncome	Mos kelmagan	15.065	14.979	.0856	.025	3.41
	ATE	15.065	14.642	.423	.503	0,84

1-rasm. Moslik modelining ustma-ust tushishi taxmini



3-jadval. Taxminiy ta'siri.

O'zgaruvchi	Namuna	Ta'sir	Nazorat o'zgaruvchilari	Farq	S.X.	T-stat
LnIncome	Mos kelmagan	15.065	14.979	.0856	.025	3.41
	ATT	15.065	14.642	.423	.503	0,84
	ATU	14.979	14.946	-.033		
	ATE			.095		

4-jadval. Ta’riflovchi statistik jadval – Lafz.

O‘zgaruvchi	O‘lchov birligi	Kuzatuvlar	O‘rta	Stan.Xato	Min	Maks
RoL	Indeks	180	-0,828	0,491	-1,641	0,357
GDP	USD	180	34,056	46,054	2,7	211,107
Capital	% YaIMga	180	26,962	9,416	6,296	57,71
Trade	% YaIMga	180	87,552	26,845	29,192	175,351
FDI	% YaIMga	180	7,327	8,786	-37,173	55,073

5-jadval. Regressiya natijalari - Lafz

Tobe o‘zgaruvchi	Erkin o‘zgaruvchi	Fixed Effects	Random effects	Driscroll-Kraay
<i>InGDP</i>				
	<i>RoL</i>	0,662** (0,249)	0,637** (0,252)	0,662*** (0,138)
	<i>Capital</i>	0,021** (0,008)	0,021*** (0,008)	0,021*** (0,006)
	<i>Trade</i>	-0,003 (0,002)	-0,004 (0,002)	-0,003*** (0,001)
	<i>FDI</i>	-0,016 (0,010)	-0,016 (0,010)	-0,016 (0,006)
	<i>Constant</i>	3,215*** (0,366)	3,217*** (0,638)	3,215*** (0,310)

Eslatma:

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

6-jadval. Diagnostik testlar

Test turi:	Test nomi va Stata kodi	P-value	Xulosa
O'zaro bog'liqlik	B-P/LM testi Stata: xttest2	0.000	O'zaro bog'liqlik
O'zaro bog'liqlik	Pesaran testi Stata: pesaran abs	0.000	O'zaro bog'liqlik
Geteroskedastiklik	O'zgartirilgan Vald testi Stata: xttest3	0.000	Geteroskedastiklik
Serial bog'liqlik	Stata: xtserial	0.000	Serial bog'liqlik


7-jadval. O'zgaruvchilar tavsifi - Pokizalik

O'zgaruvchining nomi	Tavsif	O'lchov birligi
pcinc	Aholi jon boshiga daromad	so'm miqdorida mablag' ajratildi
imp_water	Yaxshilangan ichimlik suvi inshooti uchun soxta (dummy) o'zgaruvchi	binar
imp_sanit	Yaxshilangan sanitariya inshooti uchun soxta (dummy) o'zgaruvchi	binar
imp_wat_san	imp_water va imp_sanit o'zgaruvchilarning o'zaro ta'sir muddati	binar
hhsize	Uy xo'jaligi hajmi	odam
urb	Uy xo'jaligi shahar yoki qishloqda bo'lsa, soxta (dummy) o'zgaruvchi	binar
heduc_exists	Uy xo'jaligida oliy ma'lumotli odam bo'lsa, soxta (dummy) o'zgaruvchi	binar
		binar


8-jadval. Modellar ro‘yxati

Modellar	imp_water	imp_sanit	imp_wat_san	hhsize	urb	heduc_exists	emp_exists
Model 1	+						
Model 2		+					
Model 3			+				
Model 4			+	+			
Model 5			+	+	+		
Model 6			+	+	+	+	
Model 7			+	+	+	+	+

2-rasm. Pokizalik qadriyati uchun chiziqlilik farazi tekshiruvi



3-rasm. Pokizalik qadriyati uchun normallik farazi tekshiruvi



9-jadval. Tozalik uchun multikollinearlik tekshiruvi

O'zgaruvchilar	VIF
imp_wat_san	1.020782
hhsizе	1.035232
urb	1.038985
heduc_exists	1.023451
emp_exists	1.016701

10-jadval. Tozalik uchun regressiya natijalari

	Regressiya natijalari						
	Bog‘liq o‘zgaruvchi						
	log (pcinc)						
	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)
imp_water	0,221*** (0,027)						
imp_sanit		0,132*** (0,025)					
imp_wat_san			0,192*** (0,019)	0,171*** (0,019)	0,152*** (0,019)	0,123*** (0,019)	0,117*** (0,018)
hhszie				-0,072*** (0,003)	-0,069*** (0,003)	-0,073*** (0,003)	-0,081*** (0,003)
urb					0,121*** (0,013)	0,095*** (0,013)	0,081*** (0,012)
heduc_exists						0,294*** (0,015)	0,304*** (0,014)
emp_exists							0,300*** (0,015)
Doimiy	10.098*** (0,027)	10.184*** (0,024)	10.139*** (0,018)	10.529*** (0,024)	10.468*** (0,025)	10.459*** (0,024)	10.438*** (0,024)
Kuzatishlar	9 888	9 888	9 888	9 888	9 888	9 888	9 888
R²	0,007	0,003	0,010	0,063	0,071	0,107	0,144
Sozlangan R²	0,006	0,003	0,010	0,062	0,071	0,107	0,143
Qoldiq Std.Xato	1,177 (df = 9886)	1,179 (df = 9886)	1,175 (df = 9886)	1,143 (df = 9885)	1,138 (df = 9884)	1,116 (df = 9883)	1,093 (df = 9882)
						269,494*** (df = 4; 9883)	331,436*** (df = 5; 9882)
<i>Eslatma:</i>	9886)	9886)	9886)	9885)	9884)	9883)	9882)

*p<0,1; **p<0,05; ***p<0,01

11-jadval. Random Effect regressiya natijalari - Jasorat

O'zgaruvchilar	Baholash koeffitsiyenti	Standard xatolik	z-qiymati	p-qiymati
(Intercept)	0.0075	0.0041	1.8308	0.0671.
Kapital bozori daromadi	0.0358	0.0164	2.1781	0.0293*
Inflyatsiya	0.4805	0.1434	3.3508	0.0008***

Eslatma:

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

12-jadval. Pooled OLS regressiya natijalari

O'zgaruvchilar	Baholash koeffitsiyenti	Standard xatolik	t- qiymati	p- qiymati
(Intercept)	0.0077	0.0038	2.018	0.0467*
Kapital bozori daromadi	0.0351	0.0165	2.125	0.0364*
Inflyatsiya	0.4710	0.1310	3.365	0.0011**

Eslatma:

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

13-jadval. Regressiya natijalari - O'zbek tili

O'zgaruvchilar	O'rtacha ta'lim davomiyligi	Ikkinchi tilni o'rGANISH	Daromad	
			(1)	(2)
Yosh	0.455*** (0.006)	-0.008** (0.003)	0.004*** (0.001)	0.002 (0.0003)
Jins	-0.215 (0.255)	0.100 (0.120)	-0.477*** (0.009)	-0.477 (0.017)
Ona-tilini bilish	0.007* (0.004)	0.008** (0.003)		
Hudud	0.002 (0.005)		0.019*** (0.188)	
Ta'lim davomiyligi			.0879*** (0.002)	.0872*** (0.003)
O'zgarmas	1.978 ** (0.647)	1.867 ** (0.790)	14.208*** (0.186)	

Qavslar ichidagi standart xatolar

*** p<0,01, ** p<0,05, * p<0,1

14-jadval. Regressiya natijalari - Harakatda-baraka

	Bog‘liq o‘zgaruvchi		
	log (pcinc)		
	(1)	(2)	(3)
no_action	-0,519*	-0,542*	-0,546*
	(0,308)	(0,306)	(0,308)
urb		0,605**	0,606**
		(0,276)	(0,277)
heduc_exists			-0,057
			(0,457)
Constant	4,967***	4,692***	4,699***
	(0,164)	(0,205)	(0,212)
Kuzatishlar	273	273	273
R^2	0,010	0,028	0,028
Sozlangan R^2	0,007	0,020	0,017
			2,281 (df = 269)
F Statistika	2,829* (df = 1; 271)	3,833** (df = 2; 270)	2,551* (df = 3; 269)

Eslatma:

*p<0,1; **p<0,05; ***p<0,01

15-jadval. Ta'riflovchi statistik jadval

<i>O'zgaruvchi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>Kuzatuvlar</i>	<i>O'rta</i>	<i>Stan. Xato</i>	<i>Min</i>	<i>Maks</i>
GDP	USD	160	35,319	48,539	2,7	211,107
Patent	birliklar	160	422,225	512,056	2	2202
Capital	YaIMga nisbatan %	160	25,562	8,082	6,296	57,71
Trade	YaIMga nisbatan %	160	88,907	27,074	29,192	175,351
FDI	YaIMga nisbatan %	160	7,283	9,187	-37,173	55,073

16-jadval. Regressiya natijalari - Erkin va mustaqil fikr

Tobe o'zgaruvchi	Erkin o'zgaruvchilar	Fixed effects	Random effects	Panel corrected standard errors
<i>lnGDP</i>				
	<i>patent</i>	-0,001* (0,0003)	-0,0002 (0,0004)	0,0005*** (0,0002)
	<i>Capital</i>	0,011 (0,008)	0,010* (0,009)	0,003 (0,003)
			**) (0,001)	-0,003** (0,001)
	<i>FDI</i>	-0,012 (0,009)	-0,011** (0,009)	0,0001 (0,002)
	<i>Constant</i>	3,249*** (0,350)	3,160*** (0,678)	2,351*** (0,193)

Eslatma:

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

17-jadval. Diagnostik testlar - Erkin va Mustaqil fikr

Test turi:	Test nomi va Stata kodi	P-value	Xulosa
O'zaro bog'liqlik	B-P/LM test Stata: xttest2	0.000	O'zaro bog'liqlik
O'zaro bog'liqlik	Pesaran testi Stata: pesaran abs	0.000	O'zaro bog'liqlik
Geteroskedastiklik	O'zgartirilgan Vald testi Stata: xttest3	0.000	Geteroskedastiklik
Serial bog'liqlik	Stata: xtserial	0.000	Serial bog'liqlik

18-jadval. Ta'riflovchi statistik jadval

O'zgaruvchi	O'lchov birligi	Kuzatuvlar	O'rta	Stan. Xato	Min	Maks
salary	UzS	1509	5629564.7	2828289.2	500000	20000000
teamwork	indeks	1509	5.917	2.302	-4.5	9
experience	yil	1509	12.023	10.252	1	50
gender	1-erkak., 0-ayol.	1509	0.612	0.487	0	1

19-jadval. Regressiya natijalari - Yelkadoshlik

Igsalary	Koeffitient	Stan. Xatolik	t	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
teamwork	0.009	0.006	1.66	0.098	-0.002	0.02	*
experience	0.018	0.001	14.16	0.000	0.016	0.021	***
gender	0.098	0.030	3.22	0.001	0.038	0.158	***
Constant	15.073	0.047	318.40	0.000	14.981	15.166	***

Mean dependent var	15.407	SD dependent var	0.574
R-squared	0.105	Number of observations	1509
F-test	70.756	Prob > F	0.000
Akaike crit. (AIC)	2445.094	Bayesian crit. (BIC)	2466.371

Eslatma:

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

20-jadval. Panel ma'lumotlarini (Xausman testi natijalari asosida) va mamlakat daromadlari sinfi bo'yicha (Jahon banki tasnifi) OLS regressiyasi.

O'ZGARUVCHILAR	Kam daromadli mamlakatlar		O'rtachadan past daromadli mamlakatlar		O'rtachadan yuqori daromadli mamlakatlar		Yuqori daromadli mamlakatlar	
	O'zgarmas effektlar (FE)	OLS	O'zgarmas effektlar (FE)	OLS	Tasodify effektlar (RE)	OLS	O'zgarmas effektlar (FE)	OLS
lnEF	-2.131*** (0,518)	-0,635*** (0,161)	-2.896*** (0,367)	-0,176* (0,0981)	-0,560*** (0,195)	-0,0619 (0,126)	1,169*** (0,250)	0,0523 (0,194)
lnEFsqrt	-0,371*** (0,116)	-0,171*** (0,0414)	-0,413*** (0,0635)	-0,0458* (0,0263)	-0,169*** (0,0529)	0,0163 (0,0424)	0,241*** (0,0670)	0,0861 (0,0762)
Urbanization	0,0785*** (0,00953)	0,0203*** (0,00375)	0,0453*** (0,00325)	0,0126*** (0,00141)	0,0275*** (0,00292)	0,0129*** (0,00198)	-0,0248*** (0,00619)	0,0137*** (0,00218)
Inflation	-0,000417 (0,00128)	-0,000236 (0,00497)	8.31e-05 (0,000672)	0,000365 (0,00226)	-0,000297 (0,000712)	-0,000528 (0,00249)	0,00114* (0,000619)	-0,00877** (0,00411)
Unemployment	-0,000584 (0,00985)	-0,0179 (0,0203)	-0,00149 (0,00436)	0,00371 (0,00324)	-0,0139*** (0,00308)	-0,0117*** (0,00380)	-0,0140*** (0,00187)	-0,0462*** (0,00661)
TradeOpenness	-5.21e-05 (0,000749)	-0,00247** (0,00108)	-0,000282 (0,000524)	-0,00244*** (0,000780)	0,00148*** (0,000461)	0,00219*** (0,000586)	-0,000525 (0,000321)	-0,000443 (0,000374)
FDI	0,0117*** (0,00266)	-0,00633 (0,00439)	0,00101 (0,00147)	0,00191 (0,00382)	-0,000723 (0,000924)	0,00452 (0,00381)	2.74e-05 (0,000178)	0,000195 (0,000926)
Gross Capital Formation	-8.61e-05 (0,00310)	0,0132*** (0,00352)	0,00314*** (0,00109)	-0,00267 (0,00198)	0,00167 (0,00163)	-0,00511 (0,00335)	-0,00371*** (0,00136)	-0,0122** (0,00531)
Konstanta	2.429*** (0,539)	5,996*** (0,174)	2,647*** (0,396)	7.508*** (0,140)	6,686*** (0,276)	8.042*** (0,223)	13.59*** (0,600)	9,945*** (0,298)
R-kvadrat	0,907	0,698	0,555	0,300		259	317	317
Mamlakat soni	13		47		44	0,297	0,296	0,314
						38		

Qavslar ichidagi standart xatolar

*** p<0,01, ** p<0,05, * p<0,1

21-jadval. Geteroskedastiklik uchun testlar..

TESTLAR	Kam daromadli mamlakatlar		O'rtachadan past daromadli mamlakatlar		O'rtachadan yuqori daromadli mamlakatlar		Yuqori daromadli mamlakatlar	
	chi2	P(chi2)	chi2	P(chi2)	chi2	P(chi2)	chi2	P(chi2)
Geteroskedastiklik uchun Breysh-Pagan/Kuk-Vaysberg testi	0,61	0,434	0,83	0,3628	0,73	0,3917	0,30	0,5825
Vayt (White) testi	59.12	0,052	111.67	0.000	124.26	0.000	119.22	0.000

22-jadval. Regressiya natijalari - Silai-rahm

O'ZGARUVCHILAR	(1) Tasodifiy effektlar (RE) modeli	(2) Tasodifiy effektlar to'g'irlangan standart xatolar modeli	(3) Panel ma'lumotga mos tushgan chiziqli model
InGivingIndex	0,201** (0,0802)	0,201*** (0,0603)	0,201** (0,0800)
InPOP	-0,0327* (0,0184)	-0,0327*** (0,00707)	-0,0327* (0,0183)
Urbanpopulationoftotalpop	0,0517*** (0,00138)	0,0517*** (0,000492)	0,0517*** (0,00138)
Foreigndirectinvestmentneti	0,00305** (0,00150)	0,00305*** (0,00104)	0,00305** (0,00149)
Constant	5,453*** (0,376)	5,453*** (0,275)	5,453*** (0,375)
Kuzatuvlar	1008	1008	1008
Vaqt guruhi soni	12	12	12

Qavslar ichidagi standart xatolar

*** p<0,01, ** p<0,05, * p<0,1

23-jadval. Geteroskedastiklik testi natijalari - Silai-rahm.

Geteroskedastlik testlari	P-qiyamati
Lagranj Ko'paytmasi LK Testi	0,0000
O'xshashlik Nisbati O'N Testi	0,0000
Vald Testi	0,0000

24-jadval. Regressiya natijalari - Tabiat bilan uyg‘unlik

Tobe o‘zgaruvchi	Erkin o‘zgaruvchi	Koeffitsiyent	Stan. Xato	P-value
<i>GDPpercapita</i>				
	<i>capitalperpop</i>	2.64***	0.21	0.000
	<i>airmortality</i>	-63.12***	21.73	0.004
	<i>stresswater</i>	1.41	2.28	0.536
	<i>Konstanta</i>	12289.70***	2672.43	0.000
<i>airmortality</i>				
	<i>co2</i>	4.59	14.38	0.749
	<i>pm25</i>	2.52***	0.28	0.000
	<i>forest</i>	0.28	0.22	0.193
	<i>Konstanta</i>	13.62	14.05	0.333

Eslatma:

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1